



TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI F A R M O Y I S H I

2023 - yil 22 - may

37-14-220-F/23

Yangihayot tuman hokimligi

Mehnat ta'tili berish to'g'risida

1. Tuman hokimligi oila va xotin-qizlar masalalari kotibiyati bosh mutaxassisi Aripova Munira Turgunovnaga 25.05.2022-25.05.2023-yillar ish davri uchun 2023-yilning 22-may kundan 27 kalendar kuni hisobidan har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'til va 5 kalendar kundan iborat qo'shimcha mehnat ta'tili berilsin.

Ishga chiqish sanasi 2023-yil 23-iyun.

2. Tuman hokimligi bosh hisobchisi Safarov Ilyos Raxmanberdievichga 19.11.2022-19.11.2023-yillar ish davri uchun 2023-yilning 22-may kundan 27 kalendar kuni hisobidan har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'til va 5 kalendar kundan iborat qo'shimcha mehnat ta'tili berilsin.

Ishga chiqish sanasi 2023-yil 23-iyun.

3. Tuman hokimligi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi yetakchi mutaxassisi Rizashov Anvarjan Azamjanovichga 07.10.2022-07.10.2023-yillar ish davri uchun 2023-yilning 22-may kundan 27 kalendar kuni hisobidan har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'til va 5 kalendar kundan iborat qo'shimcha mehnat ta'tili berilsin.

Ishga chiqish sanasi 2023-yil 23-iyun.

4. Tuman hokimligi buxgalteriyasi (I.Safarov):

M.Aripova, I.Safarov va A.Rizashov bilan qonunda belgilangan tartibda hisob-kitob qilinishini hamda mehnat ta'tili davrida sog'ligini tiklash uchun bir oylik lavozim maoshi miqdorida moddiy yordam ko'rsatilishi ta'minlasin.

5. Yangihayot tumani hokimining 2022-yil 8-avgustdagi 86-14-220-F/22-sonli farmoyishining 1-bandidagi "19.11.2022-19.11.2023 yillar ish davri" uchun so'zlari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"19.11.2021-19.11.2022-yillar ish davri uchun".

6. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari J.Eshquvvatov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: *M.Aripova, I.Safarov va A.Rizashovning arizasi, J.Eshquvvatovning bildirgisi va Mehnat kodeksining 218-219-moddalari.*

Yangihayot tumani hokimi



X.Inogamov